



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



“EKOLOGIK MUHIT TA’SIRIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI VA O’ZBEKISTON AMALIYOTI: INNOVATSION YONDASHUVLAR TAHLILI”

Axmedjonova Nozigul Zaripovna

Shahrisabz Davlat Pedagogik Instituti Pedagogika Fakulteti

Ta’lim tarbiya nazariyasi va nazariyasi yo’nalishi Maktabgacha ta’lim Magistranti

E-mail; axmedjonovanozigul@gmail.com

Annotatsiya; Ushbu maqolada ekologik muhitning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga ko’rsatadigan ta’siri xorijiy tajribalar va O’zbekiston amaliyoti asosida tahlil qilindi. Maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning fiziologik, psixologik va intellektual rivojlanishida ekologik muhitni shakllantirishning o’rni, xorijiy mamlakatlarning ilg’or yondashuvlari hamda O’zbekiston sharoitida ularni amaliyotga joriy etish imkoniyatlari ko’rsatib o’tildi.[3] Xususan, Finlandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya va Shvetsiya tajribalari tahlil qilinib, ekologik ta’limda innovatsion metodik yondashuvlarning o’ziga xos jihatlari ochib berildi. Maqolada ekologik-pedagogik muhitni takomillashtirish orqali bolalarning fiziologik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatish yo’llari ish lab chiqilgan.[1]

Kalit so‘zlar: Ekologik muhit, maktabgacha ta’lim, fiziologik rivojlanish, xorijiy tajriba, innovatsion metodika, ekologik ta’lim, bolalar rivoji.

Abstract; This article analyzes the impact of the ecological environment on the development of preschool children based on foreign experiences and the practice of Uzbekistan. It highlights the role of forming an ecological environment in the physiological, psychological, and intellectual development of children in the preschool education system, emphasizing advanced approaches of foreign countries and their applicability in the context of Uzbekistan. In particular, the experiences of Finland, Japan, South Korea, Germany, and Sweden are analyzed to reveal specific features of innovative methodological approaches in environmental education. The article also develops ways to positively influence the physiological development of children through the improvement of the ecological-pedagogical environment.

Keywords: ecological environment, preschool education, physiological development, foreign experience, innovative methodology, environmental education, child development.

Аннотация: В данной статье проанализировано влияние экологической среды на развитие детей дошкольного возраста на основе зарубежного опыта и практики Узбекистана. Показана роль формирования экологической среды в физиологическом, психологическом и интеллектуальном развитии детей в системе дошкольного образования, рассмотрены передовые подходы зарубежных стран и возможности их внедрения в условиях Узбекистана. В частности, проанализирован опыт Финляндии, Японии, Южной Кореи, Германии и Швеции, раскрыты особенности инновационных





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



методических подходов в экологическом образовании. В статье разработаны пути положительного влияния на физиологическое развитие детей посредством совершенствования экологическо-педагогической среды.

Ключевые слова: экологическая среда, дошкольное образование, физиологическое развитие, зарубежный опыт, инновационная методика, экологическое образование, развитие детей.

Bugungi globallashuv davrida inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni saqlash masalasi butun dunyo miqyosida eng dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Ekologik inqirozlar, atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi inson salomatligi va rivojlanishiga bevosita ta’sir etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar organizmi ekologik omillarga nisbatan eng sezgir qatlam bo‘lib, ularning fiziologik va psixologik rivojlanishi uchun qulay ekologik muhit zarurdir.[4] Maktabgacha ta’limda ekologik muhitni to‘g‘ri tashkil etish bolalar sog‘lom turmush tarziga, tabiatga mehr va mas’uliyatli munosabatni shakllantirishning muhim omilidir. Shu bois bugungi kunda ekologik ta’limni rivojlantirish, ekologik -pedagogik muhitni yaratish, bolalarning tabiiy muhit bilan faol aloqasini ta’minalash xalqaro ta’lim tizimlarining markaziy masalasiga aylangan.[2]

Jahonning ilg‘or davlatlarida — Finlandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya va Shvetsiyada — maktabgacha ta’limda ekologik yondashuvga alohida e’tibor beriladi. Ushbu mamlakatlarda bolalarni ekologik madaniyat ruhida tarbiyalash, ekologik xavfsiz o‘yin muhitlarini tashkil etish, sog‘lom muhit orqali fiziologik rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash uchun zamonaviy texnologiyalar joriy etilgan.O‘zbekiston Respublikasida esa ekologik ta’lim masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.[5] 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da atrof-muhitni muhofaza qilish, sog‘lom avlodni tarbiyalash va ekologik muhitni yaxshilashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar belgilab berilgan. Biroq xalqaro tajribalarni o‘rganish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish zarurati hanuz dolzarbdir. Shu munosabat bilan ushbu maqolada ekologik muhit ta’sirida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishning xorijiy tajribalari chuqur tahlil qilinadi,[6] O‘zbekiston amaliyoti bilan qiyosiy o‘rganiladi hamda bu jarayonni takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari ishlab chiqiladi.

1. Ekologik muhit va bolalar rivojlanishining nazariy asoslari

Ekologik muhit — bu bola yashaydigan, o‘sadigan va rivojlanadigan tabiiy, ijtimoiy hamda psixologik sharoitlarning yig‘indisidir. Pedagogik jihatdan ekologik muhit bolaning fiziologik, emotsiional va intellektual salohiyatini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Vigotskiy, Montessori, Piaget va boshqa pedagoglarning ta’lim nazariyalarida tabiat bilan uyg‘unlik bola rivojining ajralmas qismi sifatida talqin qilingan. Ekologik muhit orqali bolaning harakat faoliyati, idrok, diqqat, xotira, hissiyot va tafakkuri faol shakllanadi.[7] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil makon” umumxalq





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



harakati, “Ekologik madaniyatni oshirish konsepsiysi” va “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi — mактабгача та’лимда экологик юндашувни кучайтиришга хизмат qilmoqda.[6]

2. Finlandiya tajribasida ekologik muhit orqali bolalarni rivojlantirish

Finlandiyada maktabgacha ta’limda asosiy e’tibor tabiat bilan uzviy bog‘liq ta’limga qaratilgan. Bolalar yil davomida ochiq havoda o‘ynaydi, kuzatishlar olib boradi, o‘simplik va hayvonot olamini o‘rganadi.[8] Bu orqali ularning jismoniy sog‘lomligi va tafakkuri mustahkamlanadi.[7] Finlandiya maktabgacha muassasalarida “Green School Program” (Yashil maktab dasturi) asosida ekologik fikrlash va ijtimoiy mas’uliyat tarbiyalanadi. Bu tajriba bolalarda tabiatga mehr, mehnatsevarlik va mas’uliyat hissini shakllantiradi.[9]

3. Yaponiya tajribasi: tabiiy muhit asosidagi ta’lim yondashuvlari

Yaponiyada maktabgacha ta’lim tizimining asosiy g‘oyasi — “Inson va tabiat uyg‘unligi”. Tabiatga asoslangan o‘yinlar, “eko-park” darslari, bog‘dorchilik mashg‘ulotlari orqali bolalar ekologik muhitni amaliy tarzda o‘rganadi. Yapon pedagogikasi bolalarni faqat bilim bilan emas, balki tabiat bilan his-tuyg‘u orqali muloqot qilish orqali tarbiyalaydi. Shu bois, bolalarda ijobiy hissiyot, stressga bardoshlilik va jismoniy faoliyit rivojlanadi.[10]

4. Janubiy Koreya tajribasi: ekologik ta’lim va innovatsion texnologiyalar integratsiyasi; Janubiy Koreyada ekologik muhitni o‘rganishda raqamli texnologiyalar faol qo‘llaniladi. Bolalar interaktiv o‘yinlar, virtual ekologik laboratoriylar orqali ekologik jarayonlarni modellashtiradilar. Shuningdek, “Eco-ICT Education” dasturi orqali ekologik va texnologik savodxonlik birlashtiriladi.[10]

5. Germaniya tajribasi: ekologik kompetensiyalarni shakllantirish

Germaniyada maktabgacha ta’limda ekologik kompetensiyalar shakllantirishga katta e’tibor beriladi. Har bir bolalar bog‘chasida “ekologik markaz” mavjud bo‘lib, unda o‘simpliklar parvarishi, chiqindilarni ajratish, suvni tejash, energiya samaradorligini o‘rganish kabi amaliy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi.[9] Bu orqali bola ekologik madaniyatni bolalikdan egallaydi va kundalik hayotda ekologik xatti-harakatlarni qo‘llashni o‘rganadi.

6. Shvetsiya tajribasi: barqaror rivojlanish tamoyillarini maktabgacha ta’limda qo‘llash Shvetsiyada maktabgacha ta’limda “Sustainable Childhood” (Barqaror bolalik) konsepsiysi asosida ta’lim tashkil etiladi. Bolalarning ekologik muhitdagi xatti-harakatlari, o‘yin faoliyati, hamkorlikdagi loyihamor orqali kuzatiladi.[10] Ta’lim jarayonida bolalarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, atrof-muhitni muhofaza qilishda shaxsiy mas’uliyatni his etish ko‘nikmalari rivojlanadi.

7. O‘zbekiston amaliyotida ekologik muhit asosida bolalar rivojlanishi

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ekologik ta’limni maktabgacha tizimga integratsiya qilish yo‘nalishida qator islohotlar amalga oshirilmoqda.[3]

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida ekologik madaniyat, sog‘lom turmush tarzi va jismoniy rivojlanish alohida yo‘nalish sifatida belgilangan.[4] Ko‘plab maktabgacha ta’lim muassasalarida “Yashil hududlar”, “Ekobog‘cha”, “Tabiat sinfi” kabi loyihamor joriy etilgan. Shu bilan birga, O‘zbekistonning iqlimiylariga mos fiziologik rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilmoqda.[1]





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



8. Xorijiy tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish istiqbollari

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xorijiy tajribalarni to'liq ko'chirib olish emas, balki milliy qadriyatlar, iqlim va madaniyatga moslashtirish muhimdir.

O'zbekiston uchun quyidagi yondashuvlar samarali bo'lishi mumkin:

- 1.Finlandiya tajribasidagi ochiq havo o'yinlarini kengaytirish;
- 2.Yaponiyadagi eko-loyihalarni "Yashil makon" dasturiga integratsiya qilish;
- 3.Koreya tajribasidagi raqamli ekologik ta'limga joriy etish;
- 4.Germaniyadagi chiqindilarni ajratish madaniyatini mакtabgacha bosqichda shakllantirish;[10]

5.Shvetsiya tajribasidagi barqaror rivojlanish tamoyillarini milliy dasturlarga tatbiq etish.Ekologik muhitni ta'lim jarayoniga kiritish nazariyası A. Diesterweg, J. Dewey, J. Piaget, M. Montessori, L. Vygotskiy va E. Fromm asarlarida keng yoritilgan. Ularning nazariyasida bola shaxs sifatida tabiat bilan o'zaro muloqotda shakllanadi.

Montessori metodikasida tabiat bolaning eng buyuk o'qtuvchisidir degan g'oya ilgari suriladi.[11]

1. Finlandiya tajribasi;Finlandiyada "Early Childhood Education and Care" dasturida ekologik komponent alohida o'rinni tutadi. "Forest Kindergarten" ("O'rmon bog'chasi") modeli asosida bolalar yilning 80 foiz vaqtini ochiq havoda o'tkazadi.

Tadqiqotlarga ko'ra, bu yondashuv natijasida bolalarda mushak faoliyati va yurak-qon tomir tizimi yaxshilanadi;diqqat va xotira faollashadi;immunitet

mustahkamlanadi;ijtimoiy muloqot ko'nikmalari rivojlanadi.[11]Finlandiya mакtabgacha muassasalarda ekologik muhit faqat tabiat bilan emas, balki energiya tejamkor inshoottalar, qayta ishlanadigan materiallar, chiqindisiz muhit orqali ham yaratiladi.

2.Yaponiya tajribasi

Yaponiya ta'lim falsafasida "Hito to Shizen no Chōwa" — "inson va tabiat uyg'unligi" tamoyili ustuvor. Mакtabgacha ta'limda bolalar har kuni "Eko-loyiha"larda qatnashadi: o'simlik ekadi, chiqindilarni ajratadi, suv va energiyani tejash haqida o'rganadi.Yaponiya hukumati tomonidan "Eco-School Network" dasturi joriy qilingan bo'lib, u bolalarda ekologik mas'uliyatni bolalikdan shakllantiradi. Shuningdek, mакtabgacha ta'lim muassasalarida ekologik teatr, eko-o'yinlar, tabiat kundaliklari mashg'ulotlari keng qo'llaniladi.[10]

3. Janubiy Koreya tajribasi

Janubiy Koreyada ekologik tarbiya raqamli innovatsiyalar bilan birlashtirilgan. Bolalar ekologik jarayonlarni simulyatsiya qiluvchi AR (Augmented Reality) dasturlar yordamida o'rganadilar.Masalan, "EcoKids" platformasida bola interaktiv tarzda chiqindilarni to'g'ri ajratadi, suv aylanishi yoki fotosintezni 3D ko'rinishda kuzatadi. Bu esa ekologik tushunchalarni bolalarga amaliy, o'yin orqali singdiradi.Koreya modelining o'ziga xos jihat — ota-onalarni ham ekologik ta'lim jarayoniga jalb etishidir. "Family Green Day" loyihasi orqali oilalar bolalar bilan birgalikda ekologik mashg'ulotlarda qatnashadi.[11]

4.Germaniya tajribasi





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



Germaniyada “Öko-Kita” (“Ekobog‘cha”) tizimi keng tarqalgan. Har bir bolalar bog‘chasida ekologik laboratoriylar mavjud bo‘lib, bolalar tajribalar asosida suv, havo, tuproqning ahamiyatini o‘rganadilar.[9] Nemis pedagoglari ekologik kompetensiyani bolaning kundalik faoliyatidagi ekologik qarorlar orqali shakllantiradi. Masalan, bola suvni tejaydi, chiqindilarni ajratadi, qayta ishlangan o‘yinchoqlardan foydalanadi. Shuningdek, Germaniyada ekologik ta’lim bolaning ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlovchi muhit sifatida qaraladi: tabiiy ranglar, yog‘och mebellar, ochiq maydonlar bolada tinchlik hissini uyg‘otadi.[4]

5. Shvetsiya tajribasi

Shvetsiyada “Education for Sustainable Development (ESD)” dasturi maktabgacha bosqichdan boshlab joriy etilgan. Har bir bog‘chada “eko-burchaklar”, “tabiat burchaklari” mavjud.[7] Shvets pedagoglari ekologik tarbiyani ijtimoiy rivojlanish bilan bog‘laydi. Bolalar kichik guruhlarda atrof-muhit muammolarini muhokama qiladi, muammolarga yechim topish o‘yinlarini tashkil etadi.

6. AQSH va Norvegiya tajribasi

AQSHda “Outdoor Classroom” konsepsiysi asosida ekologik ta’lim tashkil etiladi. Bolalar har kuni darslarning bir qismini tabiat qo‘ynida o‘tkazadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, bu usul stressni kamaytiradi, e’tiborni kuchaytiradi va ijtimoiy faollikni oshiradi. Norvegiyada esa “Frluftsliv” — “tabiat bag‘rida hayot” falsafasi asosida bolalar bog‘chalari faoliyat yuritadi. Bu yondashuv bolalarda sovuqqa bardoshlilik, mustaqillik, jismoniy kuch va ruhiy barqarorlikni rivojlanadir.[11]

7. O‘zbekiston amaliyoti

O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida ekologik yondashuv so‘nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. “Ilk qadam” davlat dasturida ekologik tarbiya alohida yo‘nalish sifatida ajratilgan. “Yashil makon”, “Ekobog‘cha”, “Ekologik sinf” loyihalari orqali bolalar ekologik faoliyatga jalb etilmoqda. Ayrim viloyatlarda (Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo) xorijiy tajriba asosida ochilgan “eko-bog‘chalar” faoliyat yuritmoqda.

Ularda: chiqindilarni ajratish tizimi; o‘simlik ekish mashg‘ulotlari; ochiq havoda mashqlar; tabiiy materiallardan o‘yinchoqlar tayyorlash amaliyoti joriy etilgan.

8. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish istiqbollari

Xorijiy tajribalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki[10]:

Finlandiya tajribasidan – tabiat bilan integratsiyalashgan ta’lim;

Yaponiya tajribasidan – eko-loyihalar orqali hissiy rivojlanish;

Koreya tajribasidan – raqamli ekologik texnologiyalar;

Germaniya tajribasidan – ekologik kompetensiyalarni kundalik hayotga singdirish;

Shvetsiya tajribasidan – barqaror rivojlanish tamoyillarini olish zarur.

Ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish uchun:

1. Har bir bog‘chada “ekologik burchak” tashkil etish;
2. Pedagoglar uchun ekologik ta’lim bo‘yicha malaka oshirish dasturlarini yaratish;
3. Raqamli ekologik o‘yinlarni o‘zbek tilida ishlab chiqish;





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



4. Bolalarning ekologik faoliyatini oilalar bilan hamkorlikda tashkil etish;
5. “Yashil makon” dasturini pedagogik laboratoriya sifatida rivojlantirish zarur. [9]

Xulosa Xorijiy tajribalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ekologik muhit bolalar rivojining ajralmas qismi bo‘lib, u bolaning sog‘lig‘ini mustahkamlaydi; tafakkurini faollashtiradi; mas’uliyatli va ekologik ongli shaxsni shakllantiradi. [11] O‘zbekiston sharoitida ushbu yondashuvlarni qo‘llash orqali mакtabgacha yoshdagi bolalarning fiziologik va psixologik rivojlanishini yanada samarali yo‘lga qo‘yish mumkin.

Tavsiyalar

1. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ekologik laboratoriylar tashkil etish.
2. Pedagoglar uchun ekologik ta’lim bo‘yicha maxsus malaka oshirish dasturlarini joriy etish.
3. Bolalar bog‘chalarida “Yashil makon” loyihamalarini amaliy mashg‘ulotlarga aylantirish.
4. Xorijiy tajriba asosida O‘zbekiston sharoitiga mos ekologik tarbiya dasturlarini ishlab chiqish.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Montessori M. The Discovery of the Child. New York: Ballantine Books, 1995.
2. OECD (2022). Early Childhood Education in Finland. Paris.
3. UNESCO (2021). Education for Sustainable Development Goals.
4. Korean Institute of Child Development (2020). Eco-ICT Preschool Education Framework. Seoul.
5. Ministry of Education, Japan (2022). Eco-School Network Guidelines. Tokyo.
6. Bundesministerium für Bildung und Forschung (Germany, 2021). Umweltbildung in der frühen Kindheit. Berlin.
7. Swedish National Agency for Education (2023). ESD in Early Years. Stockholm.
8. U.S. Department of Education (2020). Outdoor Learning and Child Well-being. Washington D.C.
9. Norwegian Ministry of Education (2021). Friluftsliv in Early Education. Oslo.
10. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (2024). Ilk qadam davlat o‘quv dasturi. Toshkent.
11. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.

